
Italiyaning O'zbekistondagi Elchixonasi xodimlari tumanimizda bo'lishdi

Italiyaning O'zbekistondagi Elchixonasi tashbusi bilan 13-14 oktyabr kunlari Elchixonona harbiy atteshesi Stefano Porchedda hamda Elchixonona xodimi Mauro Frantsellilar Farg'ona viloyatidaning bir qator shahar va tumanlarida bo'lishdi.

Kecha elchixonona vakillari Rishton tumaniga tashrif buyurishdi. Mehmonlar dastlab usta kulol, tadbirkor Ravshan Tojiddinov rahbarlik qilayotgan "R+Koron" korxonasiqa qarashli kulolchilik muzeyida bo'lishdi.

U yerda elchixonona xodimlariga Rishton kulolchiligi tarixi, bugungi kunda erishilayotgan yutuqlari, tumanimizning turizm salohiyati, madaniyati va tarixi xususida ma'lumot berildi.

Aytish joizki, kulolchilik muzeyidagi san'at durdonalari italiyalik mehmonlarni lol qoldirdi. ??? - Bugun men haqiqiy ertaklar olamiga tushib qolgandek bo'ldim. Rishton kulolchilik mahsulotlari meni o'ziga rom etdi. Ushbu muzeydan ketgim ketmay qoldi, - deydi Italiyaning O'zbekistondagi Elchixonasi harbiy atteshesi Stefano Porchedda. Bularning barchasi qo'l mehnati orqali yaratilayotgani hayratimni yanada oshirdi.

Mehmonlarning keyingi manzili "Halqaro kulolchilik markazi" bo'ldi. U yerda mehmonlar yana bir taniqli usta kulol Alisher Nazirovning uy muzeyida bo'lishdi va Rishton an'anaviy kulolchilik mahsulotlarini maroq bilan tomosha qilishdi. O'z navbatida Alisher Nazirov mehmonlarga Rishton kulolchilik tarixi haqida so'zlab berdi.

??? - Ochig'i, men hayratdaman. Rishton kulolchilik mahsulotlari har qanday xorijlik mehmoni o'ziga rom etishi aniq. Prezident tomonidan Rishton kulolchiligi rivoji uchun berilayotgan e'tibor esa tahsinga loyiq. Umuman olganda, Farg'onaga tashrifimiz sermazmun bo'ldi. Bu yerdagi mehmondo'stlik, samimiy muloqotlar uchun o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz, deydi Elchixonona xodimi Mauro Frantselli.

2022-10-15 06:35:44